

**ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA O‘XSHATISHLAR**

**Qurbanova Gavhar Xurramovna**

TerDPI o‘qituvchisi

**Avazova Dilfuza**

TerDPI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘xhatishlar o‘zi nima ekanligi, nimaga asoslanib hosil bo‘lishi va Abdulla Oripovalning “Qo‘riqxona” she’ridan keltirilgan bandlarning ma’naviy tahlili va o‘xhatishlardan samarali foydalanilgani haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** O‘xhatish, qiyoslash, vosita, iymon, insof, ezgulik, oqibat, hayo.

O‘xhatishlar foydali yozish vositasidir, chunki ular tavsiflarni yanada qiziqarli va batafsilroq bayon qilishga yordam beradi. Ikki xil narsani taqqoslash orqali biz ularning umumiy fazilatlarini ajratib ko‘rsatishimiz va o‘quvchini biz yozayotgan narsalarga hissiy jihatdan bog‘lashimiz mumkin. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni, tushunchani, narsani, hodisani va ularning belgisini qiyos qilish, o‘xhatish troplarga asos qilib olinadi. Bunda ular haqida aniq tasavvur paydo bo‘ladi. Keling, shu o‘rinda o‘xhatish haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish uchun misollar bilan ishlaymiz.

O‘xhatish – bunda ikki narsa yoki voqeа-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisi, uning mohiyati to‘laroq va kuchaytirilibroq namoyon etiladi. O‘xhatishda quyidagi tushunchalar bo‘lishi kerak:

- 1)o‘xhatilgan predmet;
- 2)o‘xhatilgan narsa;
- 3)o‘xhatish asosi;
- 4)o‘xhatish vositasi.

*Ezgulikni asrang, olamda u ham  
Tojdor turna kabi bo ‘lmasin kamyob,  
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo  
Otashga duch kelgan polapon misol.*

Ushbu she’riy misolda ko‘rishimiz mumkinki, **ezgulik va hayo** – o‘xhatilgan predmet, **turna va polapon** o‘xhatiladigan narsa **kamyob va otashga duch kelish** – o‘xhatish asosi, **kabi va misol** – o‘xhatish vositasi. Barchamizga ayonki o‘xhatish vositalari vazifasida: *sifatida, kabi, go ‘yo, xuddi, misoli, o‘xhash, teng, -day, -dek, -simon, -ona, -larcha, -chasiga, -asiga, -omuz, -dan, -ga* kabi so‘z va

qo‘shimchalar ishlatiladi. Yuqorida ko‘rdikki shoir Abdulla Oripoval ham o‘xhatish vositalaridan juda unumli foydalangan.

Abdulla Oripov she’rlarida doimo insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Inson tabiat bilan tabiat hodisalarini qiyoslab xulosalar chiqaradi. Buning isbotini quyidagi misralarda ham ko‘rishimiz mumkin:

*Insof yo ‘qolmasin, o ‘rang mustahkam  
To uni yuzsizlik etmasin xarob,  
Ezgulikni asrang olamda u ham  
Tojdor turna kabi bo ‘lmasin kamyob.*

Insonlararo munosabatlar uchun insof juda zarur fazilatdir. Ezgulik ham juda kerakdir. Shoир bu misrada **ezgulikni tojdor turnaga** o‘xshatmoqda.

*Oqibatni asrang ,oqibat go ‘yo  
Ayiqday qaydadir topmasin zavol  
Hayoni asrangiz ,kuymasin hayo  
Otashga duch kelgan polapon misol.*

Bu misralarda ko‘ryapmizki, shoир o‘xshatish vositalaridan juda ustalik bilan foydalangan. Oqibatni **ayiqqa**, hayoni esa bir **murg‘akkina qush bolasi polaponga** o‘xshatmoqda. Bunday latif o‘xshatishlar kimning xayoliga keladi deysiza? Bu esa

Abdulla Oripovning o‘xshatishlar va qiyoslashlar ilmi bo‘yicha o‘tkir bilim sohibi ekanligining isbotidir.

*Iymonni asrangiz ,u doim tanho ,  
Undadir mujassam inson matlabi,  
Ajdodlar axtarib yurmasinlar to  
Uni allaqanday Qor odam kabi .*

Iymon haqida yozilgan ushbu bandga alohida diqqat qaratmoq lozim. Chunki iymon insoniy fazilatlarning barchasini o‘zida mujassam etadi. Ushbu bandda iymon allaqanday **Qor odamga** o‘xshatilmoqda. Shoир bunda nima demoqchiki, iymonni asrang, toki uni avlodlar Qor odamni izlagan kabi axtarib yurmasin. Iymonni asrash – bu dunyo va oxiratni asrash degan ma’noni anglatadi.

Yuqorida tanishganimiz Abdulla Oripovning “Qo‘riqxona” she’rini o‘qishda moddiy dunyo bilan ma’naviy tushunchalar yonma-yon tavsiflanadi. Hayotiy tajribalardan kelib chiqadigan bunday falsafiy mushohadalar Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos qirralaridan birini tashkil etadi. Ko‘rdikki, shoirimiz she’riyatida o‘xshatish va qiyoslash vositalaridan foydalanishda mohirdir.

Shuni yodda tutish kerakki, o‘xshatishlar to‘g‘ridan to‘g‘ri tavsif emas, balki g‘oyalar va his-tuyg‘ularni yanada qiziqarli va hayajonli tarzda ifodalashga yordam beradigan majoziy taqqoslashlardir. Odатда, o‘xshatishlardan foydalanganda, taqqoslash ma’noli va o‘quvchiga tushunarli bo‘lishiga ishonch hosil qilishimiz kerak, shundagina ifodalamoqchi bo‘lganlarimiz tez va oson tushunilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sultonova S., Sharipov O‘. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: 2009.
2. Abdurahmonov N., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: 1981.
3. Oripov A. Sheriy to‘plam. – Toshkent: 2015.
4. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA’ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.
5. G. X. Qurbonova. (2022). EXPRESSION OF ASTRONYMS IN UZBEKI THROUGH ZOOMORPHEMS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 7, 66–70.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 84–87.
7. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 301–304.
8. Sayfullayev Najibullo, Boboniyoza Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
9. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 80–83.
10. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
11. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5)(42).
12. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
13. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO’YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
14. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
15. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.